



SHONAZAR SHOABDURAHMONOV QARLUQ LAHJASI KELISHIKLARI HAQIDA

Qodirov Umarjon Akramjon o‘g‘li,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi
umarqodirov6669@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243801>

Annotatsiya. Shonazar Shoabdurahmonov o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha yirik ilmiy tadqiqotlarning muallifidir. Olim, asosan, o‘zbek adabiy tiliga asos bo‘lgan o‘zbek shevalari, ularning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari ustida ilmiy izlanishlar olib borgan. Maqolada Sh. Shoabdurahmonovning ayni ishlardagi qarluq lahjasiga mansub shahar tip shevalarida mavjud kelishiklar bo‘yicha fikrlari, ilmiy xulosalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, qarluq lahjasi, dialekt, sheva, asos, tayanch, kelishik, adabiy til, shahar shevasi.

Shonazar Shoabdurahmonov qarluq lahjasi shevalarida kelishiklar adabiy tildagidan farq qilishini aytib, bu shevalarning ba‘zilarida beshta, ba‘zilarida to‘rtta kelishik mavjudligini ko‘rsatib o‘tadi. Faqat ayrim shevalardagina oltita kelishik uchrashini ta‘kidlaydi. To‘rtta va beshta kelishikli shevalarda ikki kelishik vazifasini bitta affiks bajaradi. Masalan, toshkent shevasida beshta kelishik mavjud bo‘lib, qaratqich va tushum kelishiklari unidan keyin *-нъ* affiksi orqali ifodalanadi. Undoshdan keyin esa assimilyativ shakllari bilan o‘ndan ortiq holatda uchraydi. Farg‘ona shevalarida ham *-нъ* > *-дъ// -тъ* affikslari qaratqich va tushum kelishiklari uchun umumiydir. Qarshi shevasida esa *-ўа* ~ *-га// -қа* affikslari o‘rin-payt va jo‘nalish kelishiklarini ifodalash uchun ishlatiladi [2:82].

Toshkent shevasi

Kelishik	Unli bilan tugagan o‘zakdan so‘ng	Undosh bilan tugagan o‘zakdan so‘ng
Bosh kelishik	–	–
Tushum-qaratqich kelishigi	<i>-нъ</i>	<i>нз, в, ў</i> undoshlaridan so‘ng ba‘zan <i>-нъ</i> keladi. Boshqa holatlarda so‘z o‘zagidagi oxirgi tovushga bog‘liq bo‘ladi (<i>mas.: -лъ, -шъ, -зъ</i> va <i>h.k.</i>)
Jo‘nalish kelishigi	<i>-гә</i>	<i>-гә// -кә// -қә</i>
O‘rin-payt kelishigi	<i>-дә</i>	<i>-дә// -тә</i>
Chiqish kelishigi	<i>-дән</i>	<i>-дән// -тән</i>

Farg‘ona shevasi

Kelishik	Unli bilan tugagan o‘zakdan so‘ng	Undosh bilan tugagan o‘zakdan so‘ng
Bosh kelishik	–	–
Tushum-qaratqich	<i>-нъ</i>	<i>-дъ// -тъ</i>



kelishigi		
Jo‘nalish kelishigi	-гә	-кә// -қа
O‘rin-payt kelishigi	-дә	-дә// -тә
Chiqish kelishigi	-дән	-дән// -тән

Qarshi shevasi

Kelishik	Unli bilan tugagan o‘zakdan so‘ng	Undosh bilan tugagan o‘zakdan so‘ng
Bosh kelishik	–	–
Tushum-qaratqich kelishigi	-нъ	-нъ > -дъ// -тъ
Jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigi	-йа	-га// -ка// -қа
Chiqish kelishigi	-дан	-дан// -тан// -нан

Bosh kelishik. Shonazar Shoabdurahmonov qarluq lahjasi shevalarida xuddi adabiy tildagidek kelishik qo‘shimchalari mavjud emasligini ta’kidlab o‘tgan.

Tushum kelishigi. Qarluq lahjasining shahar shevalarida tushum kelishigi qo‘shimchasi sifatida ishlatiladigan *-нъ > -дъ// -тъ* qo‘shimchalari qaratqich kelishigi o‘rnida ham qo‘llanishini Shonazar Shoabdurahmonov ko‘rsatib o‘tgan. Masalan: toshk. *қўрасънъ кўрсатмъй кеттъ* // ad.-orf. *qorasini ko‘rsatmay ketdi*; and. *съзнъ өзъйъзгә мунасъп* // ad.-orf. *sizning o‘zingizga munosib*; *уләрдъ уч оғль бәр* // ad.-orf. *ularning uch o‘g‘li bor*; *farg‘. пъчақтъ сәпъ* // ad.-orf. *Pichoqning sori*; Toshkent shevasida *нг, в, й* tovushlari bilan tugagan o‘zaklardan keyin *-нъ* affiksi ishlatiladi: *тәнгъ // тәннъ, сувъ // сувни, тўййъ // тўйнъ*.

Boshqa undoshlar bilan tugagan so‘zlarda tushum kelishigi qo‘shimchasi assimilyatsiyaga uchraydi.

Sh.Shoabdurahmonov qarluq lahjasining ayrim shahar shevalarida tushum-qaratqich kelishigi qo‘shimchasi *-нъ > -дъ // -тъ* affiksi ekanligini ta’kidlaydi: Masalan: and. *сен бәшъйнъ тәртәсән* // ad.-orf. *sen boshingni tortasan*; namang. *әйнъ дәғнъ ельп келәсән* // ad.-orf. *o‘yning dog‘ini olib kelasan*; and. *Өзъйдъ тутънг* // ad.-orf. *o‘zingizni tuting*.

Qarluq lahjasining toshkent shevasida tushum kelishigi qo‘shimchasi so‘z qanday undosh bilan tugaganiga qarab o‘zgaradi:

[п (< б, ф) + ни > п + пь]: *қәппъ* // ad.-orf. *qorpi*; *ъшкәппъ* // ad.-orf. *shkafni*;

[к (< г) + -ни > к + -кь]: *тәккь* // ad.-orf. *tokni*; *педәгүккь* // ad.-orf. *pedagogni*.

[з + -ни > з + -зъ]: *кўзъ* // ad.-orf. *ko‘zni*; *тузъ* // ad.-orf. *tuzni*;

[л + -ни > л + -лъ]: *қўллъ* // ad.-orf. *qo‘lni*; *йўллъ* // ad.-orf. *yo‘lni*;



[М + -ни > м + -мъ]: сѣммъ // ad.-orf. simni; куммъ // ad.-orf. qumni;

[с + -ни > с + -съ]: мѣссъ // ad.-orf. misni; ѣссъ // ad.-orf. isni;

[к + -ни > к + -къ]: ѣккъ // ad.-orf. o‘qni;

[ш + -ни > ш + -шь]: ѣшшь // ad.-orf. oshni.

Jo‘nalish kelishigi. Sh. Shoabdurahmonov qarluq lahjasi Shahar shevalarida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi bir nechta ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. Masalan: toshk., farg‘. -гә (tochk. ўйгә // farg‘. ўйгә), -кә (әткә), -кә (боккә).

Samarqand-buxoro shevalarida, qisman jizzax shevasida, shuningdek, Qashqadaryo viloyati shevalarida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi bilan bir xildir: ўзънгә йоқ – әләмгә йўқ // ad.-orf. o‘zingda yo‘q – olamda yo‘q. Bu o‘rinda jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasining o‘rnida ishlatilgan.

O‘rin-payt kelishigi. Qarluq lahjasining shahar shevalarida o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasining -дә (бәләдә), -тә (әттә) kabi bir necha variantlari mavjudligini Sh. Shoabdurahmonov qayd qilib o‘tgan.

Samarqand-buxoro shevalarida o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi o‘rnida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi ishlatiladi. Masalan: Бу одамлар санъ әлдыңга нъма къладъ // ad.-orf. bu odamlar sening oldingda nima qiladi? Ман уйга едъм // ad.-orf. men uyda edim; Мактап шу къшләкка // ad.-orf. maktab shu qishloqda. Bu shevalarda o‘rin-payt va jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi vazifasini aksariyat hollarda -га affiksi bajaradi.

Xuddi shunday holat qarluq lahjasining Qashqadaryo viloyatidagi shevalarida ham kuzatiladi. Qarshi shevasida o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi oxiri unli bilan tugagan o‘zaklarda -йа shakliga ega bo‘ladi va u jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi vazifasini ham bajaradi. Masalan: у катта апасъйа хурмайа қатъх әлпн бәрган чәққа йолга йәмгәр йәққан // ad.-orf. u katta akasiga xurmada qatiq olib borayotgan choqda yo‘lda yomg‘ir yog‘gan; бу къшь Бухәрәйа йашайдъ // ad.-orf. bu kishi Buxoroda yashaydi.

Kuzatuvlar shunday xulosaga olib keladiki, qarluq lahjasining samarqand-buxoro va qarshi shevalarida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi o‘rnida ishlatiladi. O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi esa deyarli qo‘llanmaydi.

Chiqish kelishigi. Qarluq lahjasining shahar shevalarida chiqish kelishigi qo‘shimchasi so‘z o‘zagidagi oxirgi tovushning qanday bo‘lishiga qarab bir necha variantlarda kelishini Sh. Shoabdurahmonov ko‘rsatib o‘tgan. Masalan, toshk. -дан //

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



-тэн (йердэн, дарйэдэн, дэрэхтэн), farg‘. -дан // -дэн // -тан // -тэн (қолдан; namang. көпруктэн, осмэндэн), qarshi. -дан // -тан // -нан (боладан, қаламнан).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. –176 b.
2. Шаабдурахманов Ш. Карлукское наречие узбекского языка. –Ташкент: Фан, 1983. – 192 с.
3. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. –Тошкент: Фан, 1962. – 372 б.
4. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек халқ шеваларида сўз ва форма ясовчи аффикслар / Ўзбек халқ шевалари морфологияси. –Тошкент, 1984. – Б. 238-247.